SHERDOR

Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities



Volume 1 | Issue 2 | 2026

ISSN 3093-9372

Tashkent - 2026

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities

Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities (CAJSSH) is officially registered as an online mass media outlet by the Inspectorate for Control in the Sphere of Informatization and Telecommunications under the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan, pursuant to Registration Certificate No. 1668282. The journal is published under the title "Sherdor: Central Asian Journal of Social Sciences and Humanities" and is authorized to publish scholarly content in Uzbek, English, and Russian.

Editor-in-Chief
Ismoyilov Ubaydulla

Scientific Editor
Abduganiev Ahrorjon

Honorary Editors

Acad. Ahmadali Askarov
National University of Uzbekistan for Pedagogy, Uzbekistan

Prof. Rustam Suleymanov
National University of Uzbekistan, Uzbekistan

Editorial Board:

Shohistahon Uljaeva (Prof. Dr.)
Feruza Shamukaramova (Prof. Dr.)
Nigora Egamberdieva (Prof. Dr.)
Azimkhoja Otakhojaev (Prof. Dr.)
Zhenishbek Duysheev (Prof. Dr.)
Malgorzata Anna Kot (Prof. Dr.)
Osman Karatay (Prof. Dr.)
Behzod Isabekov (Dr.)
Dilshod Tukhtasinov (Dr.)
Dilafruz Karimova (Dr.)

Technical Editor
Laziz Baxtiyorov

Publisher: sherdorjournal.org
E-mail: editor@sherdorjournal.org

Contents

Xakimova Mahruya Abdulhayovna 5
A New Worldview in Youth Activism in Uzbekistan

Tukhtasinov Dilshod 8
Typological and Comparative Analysis of Some Vessels of the Open and Closed Type Found in the Lower Layer of the Uchtepa-2 Archaeological Monument

Saydullayev Chingiz Xamidullayevich 13
The Impact of Corporate Social Responsibility Strategies on Corporate Image and Sustainable Development

Rustamova Gulmira 15
The Impact of Women′s Participation in the Labor Market on Family Relationships

Pulatov Otabek 20
The Study of Craftsmanship Treatises During the Independence Period

Bekjon Kurbonov 23
State religion relations in Uzbekistan in the post independence period

Quvondiqov Mukhriddin 27
Planning the Daily Training Process for Para Judo Athletes in Training Groups

Merjen Seydullayeva 30
Digital History: Opportunities and Prospects of Modern Information Technologies in the Study of the History of Lebap Province

Safarov Abdulbosid 33
The Role of Amir Timur′s Spiritual Mentors in Establishing and Governing a Just State: The Case of Mir Sayyid Baraka

Maksadov Allanur 36
The Jadid Movement and the National Awakening in Turkestan (Late 19th – Early 20th Centuries)

Rozay Rustemova 40
The Development of Science in Central Asia under the Influence of Islamic Civilization

Samadov Sanjar 47
The Place of Khayriddin Sultan′s Literary Works in the Uzbek Literary Process

Jorayev Yhlas 49
Sogdian Merchants and the Silk Road: Central Asia′s Role in East–West Connections (2nd Century BCE – 8th Century CE)

The Study of Craftsmanship Treatises During the Independence Period

Pulatov Otabek
Trainee Lecturer at TIIAME National Research University
Tashkent, Uzbekistan
pulatovotabek43@gmail.com | ORCID: 0009-0005-2621-0457

DOI: https://doi.org/10.68358/w8gdx849

Abstract. *This article examines the role of craft treatises (risolas) in source studies and historiography of traditional Uzbek craftsmanship during the independence period. It reviews studies on craftsmanship in the southern regions of Uzbekistan, the Fergana Valley, the Khorezm oasis, and the Emirate of Bukhara, highlighting the significance of these treatises for studying professional regulations, master-apprentice relationships, religious and ethical views, traditions associated with spiritual patrons of crafts, and craft rituals. The article also identifies the main research directions and distinctive features of existing studies and substantiates the need for a systematic and comparative analysis of the spiritual and moral values reflected in craft treatises.*

Keywords: *Craft treatises (risolas), historiography, source studies, traditional craftsmanship, spiritual and moral values, futuwwa, javanmardi, traditions associated with spiritual patrons of crafts, master-apprentice relationships, professional ethics, craft rituals, independence period*

Hunarmandchilik risolalarining mustaqillik davrida o‘rganilishi

Annotatsiya. *Maqolada mustaqillik davrida o‘zbek an’anaviy hunarmandchiligi tarixini o‘rganishda hunarmandchilik risolalarining manbashunoslik va tarixshunoslikdagi o‘rni tahlil qilingan. O‘zbekistonning janubiy hududlari, Farg‘ona vodiysi, Xorazm vohasi va Buxoro amirligi hunarmandchiligi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar ko‘rib chiqilib, risolalarning kasbiy qoidalar, usta-shogird munosabatlari, diniy-axloqiy qarashlar, pirlik an’analari va hunarmandchilik marosimlarini o‘rganishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, mavjud tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishlari va o‘ziga xos jihatlari aniqlanib, risolalarda aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni tizimli hamda qiyosiy o‘rganish zarurati asoslangan.*

Kalit so‘zlar: *Hunarmandchilik risolalari, tarixshunoslik, manbashunoslik, an’anaviy hunarmandchilik, ma’naviy-axloqiy qadriyatlar, futuvvat, javonmardlik, pirlik an’analari, usta-shogird munosabatlari, kasbiy axloq, hunarmandchilik marosimlari, mustaqillik davri*

O‘zbek an’anaviy hunarmandchiligida ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning shakllanishi va namoyon bo‘lishini hunarmandchilik risolalari asosida tadqiq etish masalasi tarix, etnologiya, manbashunoslik hamda islomshunoslik fanlarining tutashgan nuqtasida joylashgan deb aytish mumkin. Mazkur mavzuning tarixshunosligini o‘rganishda, avvalo, hunarmandchilik risolalarining ilmiy muomalaga kiritilishi, ularning qanday mazmunda talqin etilgani va tadqiqotchilar e’tiborining vaqt o‘tishi bilan qanday o‘zgarganini aniqlash muhimdir.

Hunarmandchilik risolalari turli davrlarda turli soha tadqiqotchilari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, bu tadqiqotlarni davri va yondashuvi nuqtayi nazaridan 4 ta yo‘nalishga ajratish mumkin:

1. **XIX asr oxiri – XX asr boshidagi dastlabki qayd va tavsiflash bosqichi;**
2. **Sovet davri tarixiy-etnografik va manbashunoslik tadqiqotlari;**
3. **Mustaqillik davri o‘zbek olimlari tadqiqotlari;**
4. **Xorijlik olimlarning antropologik va tarixiy tadqiqotlari.**

Mustaqillik davri tadqiqotlari o‘zbek olimlari tomonidan risolalarning manbashunoslik, hunarmandchilik tarixi, diniy-axloqiy qarashlar va madaniyatni tadqiq etishdagi o‘rniga bag‘ishlangan tadqiqotlardan iborat. Bu davrdagi tadqiqotlar asosan hududiy nuqtayi nazardan o‘rganilganligi bilan ham ajralib turadi. Xususan, O‘zbekistonning janubiy hududlari hunarmandchiligi bo‘yicha M. Hamidova[1] va S. Davlatova[2], Farg‘ona vodiysi bo‘yicha Z. Esonov[3] va A.B. Maxmudov[4], Xorazm vohasi bo‘yicha I. Jabborov[5], S. Turayeva[6] va H. Hudayberganov[7], Buxoro amirligi bo‘yicha R. Qilichev va D. Atadjanovalar tadqiqot olib borganlar.

Hunarmandchilik risolalarini o‘rganishda S. Davlatovaning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Muallif O‘zbekistonning janubiy hududlari hunarmandchiligini o‘rganishga bag‘ishlangan o‘z tadqiqotida risolalarni hunarmandchilik uyushmalarining diniy, axloqiy, huquqiy va kasbiy me’yorlarini belgilab beruvchi muhim yozma manba sifatida baholaydi. Unda risolalar orqali hunar tarixi, pir-u murshidlar, mashhur ustalar, kasb qoidalari, usta-shogird munosabatlari va hunarmandchilik marosimlari haqida ma’lumot olish mumkinligi ko‘rsatiladi.

Tadqiqotning muhim jihati shundaki, S. Davlatova risolalarni faqat yozma qoidalar majmui sifatida emas, balki hunarmandlar

jamoasining ijtimoiy va ma’naviy hayotini tartibga soluvchi vosita sifatida tahlil qiladi. Usta-shogird munosabatlari, ustalikka o‘tishdagi **“fotiha”, “arvohi pir”, “kamarband”** kabi marosimlar risolalardagi me’yorlar bilan bog‘liq holda yoritiladi. Shu jihatdan uning yondashuvi boshqa tadqiqotchilarning risolalarni aniqlash, tarjima qilish va hunarmandchilik sexlari nizomlarini tavsiflashga qaratilgan ishlaridan farq qiladi. Davlatova risola qoidalarini ularning etnografik amaliyoti bilan bog‘lashga harakat qilgan.

Mazkur tadqiqot **risolalarning kasb axloqi, ustoz-shogird tizimi, pirlik instituti va hunarmandchilik uyushmalari hayotidagi o‘rnini tushunishda muhim metodologik va tarixshunoslik asos** bo‘lib xizmat qiladi. Biroq Davlatovaning asosiy tadqiqot obyekti risolalarning o‘zi emas, balki O‘zbekiston janubiy hududlari an’anaviy hunarmandchiligining tarixiy-etnologik taraqqiyoti bo‘lgan. Shu sababli mazkur dissertatsiyada risolalarning **mazmuni, tuzilishi, futuvvat-javonmardlik qarashlari, kasb axloqi va turli hunar risolalari o‘rtasidagi umumiy hamda o‘ziga xos jihatlarni maxsus tadqiq etish** Davlatova ishidan farq qiluvchi asosiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘ladi.

S.Davlatovaning risolalarning mazmuniga bag‘ishlangan maqolasida risola hunarmandchilikka oid nizomlar va qoidalar majmui sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda risolalarning kasbiy tashkilotlar faoliyati, hunarmandlarning o‘zaro munosabatlari, kasbga oid qoidalar va me’yorlarni tartibga solishdagi ahamiyati ko‘rsatiladi. Mazkur yondashuv risolalarni normativ manba sifatida tushunish uchun muhim nazariy asos yaratadi. Shu bilan birga, risoladagi me’yoriy qoidalarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning ifodasi sifatida tizimli ravishda tasniflash, ularning diniy bilim va kasbiy tajriba bilan o‘zaro aloqasini ochib berish masalasi alohida tadqiqot sifatida hali yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Hunarmandchilik risolalarini o‘rganish tarixshunosligida D.Sh. Atadjanovaning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. Muallifning Buxoro amirligi hunarmandchiligi tarixshunosligiga bag‘ishlangan dissertatsiyasida[8] amirlik hunarmandchiligining o‘rganilish tarixi tahlil qilinib, risolalarning tarixiy manba sifatidagi imkoniyatlari yoritilgan. Ularda hunarmandchilik kasblari, kasbiy qoidalar, usta-shogird munosabatlari, hunarmandlar jamoasining ijtimoiy va ma’naviy-axloqiy hayotiga oid ma’lumotlar mavjudligi ko‘rsatib berilgan.

D.Atadjanova Yevropa va Markaziy Osiyo hunarmandchilik uyushmalarini qiyosiy o‘rganishga bag‘ishlangan maqolasida[9] mazkur masalani davom ettirib, O‘rta Osiyo risolalarini Yevropa hunarmandchilik ustavlari bilan qiyosiy tahlil qilgan. Tadqiqotda kasb va mutaxassisliklar, hunarmandlarning huquq va majburiyatlari, marosimlar, axloqiy me’yorlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hamda diniy qarashlar qiyoslangan. Muallif O‘rta Osiyo risolalarida diniy-ma’naviy mazmun, axloqiy qoidalar va pirlik an’analari muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi.

Shu jihatdan D. Atadjanovaning ishlari risolalarni hunarmandchilik faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlargina emas, balki hunarmandlar jamoasining **ijtimoiy, ma’naviy-axloqiy va diniy hayotini aks ettiruvchi tarixiy manba** sifatida o‘rganishga asos yaratdi. Biroq risolalarning ichki tuzilishi, futuvvat-javonmardlik g‘oyalari, ularning shakllanish jarayoni hamda turli kasb risolalari o‘rtasidagi umumiy va o‘ziga xos jihatlarni tizimli tadqiq etish masalalari alohida tadqiqot yo‘nalishi bo‘lib qolmoqda.

S.T. Turaevaning **Xiva hunarmandchiligiga bag‘ishlangan tadqiqotida** hunarmandchilik risolalari Xiva xonligidagi hunarmandchilikni tashkil etish, hunarmandlarni tayyorlash va ustoz-shogird munosabatlarini yorituvchi muhim yozma manbalardan biri sifatida tahlil qilingan[10]. Muallif risolalarga alohida e’tibor qaratib, ularda muayyan hunarning tarixi, piri, marosimlari, shogirdlarga qo‘yiladigan talablar hamda ustoz-shogird munosabatlari aks etganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Xiva xonligi hududidan aniqlangan qassobchilik, dehqonchilik, etikdo‘zlik va kavushdo‘zlik risolalari asosida ularning tuzilishi, mazmuni va boshqa hududlardagi risolalar bilan umumiy hamda farqli jihatlarini ochib bergani bilan ham bu tadqiqot alohida ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotchining ishida etikdo‘zlik risolasida teriga ishlov berishning turli bosqichlarida o‘qiladigan oyatlar va hunarni pirlardan o‘rganish zarurati ko‘rsatilgan.

Biroq muallifning asosiy tadqiqot mavzusi Xiva xonligi hunarmandchiligining tarixiy jarayonlarini yoritish bo‘lganligi sababli, risolalarda aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar alohida tadqiqot obyekti sifatida tizimli ravishda o‘rganilmagan va ularning hunarmandchilikning turli tarmoqlaridagi umumiy modeli maxsus qiyosiy tahlil qilinmagan. Shu sababli S. Turayevaning tadqiqoti bir tomondan, Xiva risolalarining mazmuni va manbashunoslik imkoniyatlarini aniqlashda, ikkinchi tomondan esa ularda kasbiy faoliyat bilan diniy-axloqiy talablarning uyg‘unlashganini ko‘rsatishda muhim tarixshunoslik asosini tashkil etadi.

Sh. Matyakubovning XVI–XVIII asrlar Xiva xonligi hunarmandchiligiga bag‘ishlangan dissertatsiyasi Xiva xonligi hunarmandchiligi tarixini manbashunoslik, arxeologik va etnologik materiallar asosida

kompleks o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda hunarmandchilik tarixini yorituvchi yozma manbalar qatorida kasb-hunarga oid risolalardan ham foydalanilgan bo‘lib, ularning usta-shogird tizimi, hunarmandchilikni tashkil etish va kasbiy axloq me’yorlarini o‘rganishdagi ahamiyati ko‘rsatib beriladi. Muallif Xiva xonligida 40 dan ortiq kasb-hunarga oid risolalar saqlanganini qayd etib, **“Risolai sharif”** misolida risolaning tuzilishi va mazmunini tahlil qiladi. Shu jihatdan mazkur tadqiqot risolalarni Xiva hunarmandchiligi tarixini o‘rganishda qo‘llanilgan manbalar sifatida baholash uchun muhimdir, biroq risolalarning o‘zi tadqiqotning asosiy obyekti hisoblanmaydi va risolalardagi axloqiy qadriyatlar alohida tadqiq etilmagan.

Farg‘ona vodiysi hunarmandchilik risolalarini o‘rganishda L.M. Sokolovaning **tadqiqotlari ham** muhim ahamiyatga ega. Muallif risolalarning iqtisodiy va axloqiy-didaktik mazmunini aniqlash maqsadida M. Gavrilov materiallari, Sharq va Vizantiya hunarmandchilik tashkilotlari hamda G‘arbiy Yevropa ustavlarini qiyosiy tahlil qiladi. U risolalarda iqtisodiy qoidalarga nisbatan axloqiy-didaktik ko‘rsatmalar ustunligini ta’kidlab, og‘zaki pand-nasihatlar va Andijon hunarmandlaridan yozib olingan rivoyatlar asosida ularning og‘zaki shakli mavjud bo‘lganini ko‘rsatishga harakat qiladi. Shu tariqa Sokolova risolalarni nafaqat hunarmandchilik tashkilotining nizomi, balki **ustalar uchun axloqiy ko‘rsatmalarni mujassamlashtirgan manba** sifatida talqin etadi. Biroq tadqiqotda risolalardagi axloqiy, diniy, marosimiy va kasbiy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligi hamda turli hunar tarmoqlaridagi umumiy va o‘ziga xos jihatlar yaxlit tizimda ochib berilmagan. Bu holat mazkur masalani yanada chuqurroq tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

A.B. Maxmudovning Farg‘ona vodiysi milliy pichoqchilik maktablarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlariga bag‘ishlangan tadqiqotida hunarmandchilik risolalaridagi ma’lumotlardan pichoqchilikning an’anaviy qarashlari va marosimlarini yoritishda foydalanilgan . Muallif risolalarda hunarmandchilik tarmoqlarining homiy-pirlari, kasbning kelib chiqishi haqidagi rivoyatlar, odob-axloq qoidalari, ish jarayoni, urf-odat va marosimlar hamda ustoz-shogird munosabatlari yoritilganini ta’kidlagan. Ayniqsa, pichoqchilik bilan bog‘liq fotiha olish, kamarband, ustalikka bag‘ishlov va “arvohi pir” marosimlarini tahlil qilishda risolalardagi ma’lumotlarni dala materiallari bilan bog‘lab o‘rganishi tadqiqotning ahamiyatini yanada oshirgan. Biroq muallifning asosiy tadqiqot obyekti pichoqchilik tarixi bo‘lganligi sababli, hunarmandchilik risolalarida aks etgan ma’naviy-axloqiy qadriyatlar alohida tizim sifatida tasniflanmagan va ularning turli hunar tarmoqlaridagi umumiy hamda o‘ziga xos jihatlari kompleks ravishda qiyosiy tahlil qilinmagan. Mazkur jihat risolalarni ma’naviy-axloqiy qadriyatlarning tarixiy manbai sifatida maxsus tadqiq etish zaruratini ko‘rsatadi.

References

1. Ҳамидова М. Қашқадарё воҳаси ҳунармандчилиги тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари): Монография. – Тошкент: Fan va texnologiya, 2019. – 180 б.
2. Давлатова С. Ўзбек анъанавий ҳунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари мисолида) тарихий-этнологик тадқиқот: Монография. – Т.: – “Yangi nashr”, 2018. – 368 б;
3. Эсонов З. Фарғона водийси қишлоқ аҳолисининг ҳунармандчилик анъаналари (XIX аср охири – XX аср бошлари) тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Тошкент, 2021. – 199 б.
4. Maxmudov A. B. Farg‘ona vodiysi milliy pichoqchilik maktablarining shakllanish tarixi va rivojlanish bosqichlari. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya – 153 b.
5. Hudayberganov H. Xorazm kulolchiligi (etnologik tadqiqot). Toshkent: Lesson press, 2023. – 122 b.
6. Қиличев Р. Бухоро шаҳрида ҳунармандчилик (XIX асрнинг иккинчи ярми – XX аср бошлари). Тарих. фан. номзод. Дисс. – Бухоро. – 1997, –185 б.
7. Атаджанова Д. Историография ремесленного производство Бухарского ханства XIX в (на основе изучения литературы и ремесленных уставов “Рисола”).: Дисс. канд. истор. наук. – Т., – 2008. – 176 с.